

Toirova Sarafroz Adhamjon qizi

G`ofurova Nazira Qo`ziboy qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi talabalari

Anotatsiya: *Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslik fanining kelib chiqish tarixi, faning rivojlanishiga hissa qo`shgan tishunos olimlar va ularning qarashlari haqida ma`lumotlar berilgan. Shuningdek, til va madaniyat o`rtasidagi o`xshash jihatlar hamda farqli tomonlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, metodlar, etnik identitet, globalizatsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Annotation: *This article provides information about the history of the linguoculturology, the scientists who contributed to the development of the science, and their views. Also, information is given about similarities and differences between language and culture.*

Key words: *linguoculturology, methods, ethnic identity, globalization, intercultural communication.*

Lingvomadaniyatshunoslik – lingvistik va madaniyatshunoslikni birlashtirgan, hamda til va madaniyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni o`rganadigan ilmiy fandır. Bu fan XX asarning o`rtalarida alohida fan sifatida shakllana boshladi. Bu soha, asosan, til va madaniyat o`rtasidagi munosabatlarni o`rganadi, tilning madaniyatdagi o`rni, tasiri va ahamiyatini aniqlaydi. Bu sohaning asosiy maqsadi, tilni faqat grammatika va struktura tomonidan, lug`atdan iborat tizim sifatida emas, balki uning madaniy kontekstdagi rolini, odamlar dunyoni qanday tasavvur qilishi va undagi narasalarni ifodalashini, ularning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o`rnini aniqlashdir. Lingvomadaniyatshunoslik madaniyatlararo muloqatni yaxshilash va tushunishni taminlaydi. Turli madaniyatlarni bir-

birlariga bo'lgan hurmatni va madaniy farqlarni o'rganishni taminlaydi. Shuningdek, bu soha til o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki til o'rganishda o'sha mamlakatni madaniyati bilan o'rganishni talab qiladi, bunday til o'rganish til o'rganishni osonlashtiradi. Hamda bir millatning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlarini til orqali qanday ifodalanishini o'rganadi. Milliy va etnik identitetni til orqali ifodalash haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bunda odamlar o'zini qanday tanitish va shakllantirishni o'rganadi. Bu soha rivojlanishi uchun juda ko'plab olimlar o'z hissalarini qo'shishmoqda. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va o'zaro bog'liq munosabatlarni o'rganadigan ilmiy soha. Bu soha, tilning nafaqat muloqot vazifasi, balki madaniyatni ifodalovchi va saqlovchi muhim element ekanligini ko'rsatadi. Til orqali insonlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalaydi, shuningdek, madaniyatni avloddan-avlodga o'tkazadi. Til va madaniyat bir-birini ta'sir etuvchi ikki asosiy komponentdir. Madaniyat til orqali ifodalanadi, til esa madaniyatni shakllantiradi. Misol uchun, har bir xalqning o'ziga xos so'z boyligi, iboralari va urf-odatlarini mavjud bo'lib, bu ularning tarixiy tajribasi va hayot tarzini aks ettiradi. Lingvomadaniyatshunoslikda tilning madaniy kontekstagi roli, shuningdek, tilning ijtimoiy va psixologik jihatlari ham o'rganiladi. Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad - nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatida qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, kkinchi tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas. Mazkur ishimiz ayni mana shu masala – tilshunoslikning yangi sohasi lingvomadaniyatshunoslikga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik ilmiga xos bo'lgan qator yangi

sohalardan biri bo'lmish kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, matnning o'rganishdagi antroposentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvoolkashunoslik, etnolingvistika sohalariga oid masalalarni tahlil qilish yo'nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog'liq. Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi. O'zbek tilshunoslik ilmidagi ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli".

Hozirgi kunda xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar yanada mustahkamlashgan. Shunday qilib, aloqalar tilning madaniyat va til bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Madaniyat va tilni tadqiq etuvchi olimlar XX asrda bu sohalarining yangi fanga asos bo'la olishini anglagan edilar. Ushbu soha ular tomonidan lingvomadaniyatshunoslik deya nom oldi. Ya'ni til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi fan. XX asrda ushbu soha uch muammo: til, madaniyat va inson shaxsiyati orqali tadbiq etila boshlandi. Maqsad til va madaniyat haqidagi bilimlarni faollashtirish edi.

Xulosa

Xulosa qilib ta'kidlay olamizki, lingvomadaniyatshunoslik har ikkala sohaga taaluqli madaniyat va til haqidagi fan. Bu bilimlarning shubhasiz birligini anglatib, millatning mentaliteti, madaniy xususiyatlari va ularning tilda namoyon bo'lishini ifodalaydigan bu sohaning birlamchi maqsadi tilni o'rganish, madaniyatni saqlash hamda ularni birlikda mujassamlashtirishdan iboratdir.

1. Amerikana. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. -- Смоленск, 1996;
2. Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
3. Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. -М., 1998;
4. Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1997;
5. Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1995;